Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI

Zulfiya Mirzaliyevna Sadriddinova*
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi
✉ ms.zulfiyaxon08@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy tarbiya asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirishda innovatsion metodlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy va xalqaro ilmiy manbalar qiyosiy o'rganilib, pedagogik mahoratni shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, muammoli ta'lim, loyiha metodi, dizayn fikrlash va hamkorlikda o'qitish kabi innovatsion metodlarning milliy tarbiya tamoyillari bilan uyg'unlashuvi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'lim jarayoniga milliy qadriyatlarni samarali integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

milliy tarbiya, pedagogik mahorat, innovatsion metodlar, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, pedagogik ta'lim, milliy qadriyatlar, ta'lim sifati.

DOI: 10.5281/zenodo.21743891

KIRISH:

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri yuqori kasbiy kompetensiyaga ega, milliy qadriyatlarga sodiq hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan o'qituvchilarni tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajarishi sababli ushbu bosqichda faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini milliy tarbiya asosida rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan ta'limga oid farmon va qarorlarda pedagoglarni zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish hamda milliy qadriyatlarni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish zarurligi alohida ta'kidlangan [2][3].

Milliy tarbiya nafaqat o'quvchilarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish vositasi, balki pedagog shaxsining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida ham e'tirof etiladi. Milliy qadriyatlar asosida shakllangan pedagog o'z faoliyatida ta'limning insonparvarlik, hamkorlik va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillarini samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi

[4].

So‘nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham innovatsion pedagogik metodlarning o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, J. Hattie o‘qituvchining pedagogik mahorati o‘quvchilar natijalariga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi [5]. L. Darling-Hammond esa o‘qituvchilarni tayyorlashda refleksiv faoliyat, hamkorlikdagi o‘qitish hamda amaliy tajribaga asoslangan metodlarning ustuvorligini ilmiy asoslaydi [6]. Biroq ayrim tadqiqotchilar innovatsion metodlarning samaradorligi faqat ularni qo‘llash bilan emas, balki pedagogning madaniy, ijtimoiy va milliy qadriyatlarga asoslangan kasbiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liqligini qayd etadilar [7].

Mahalliy tadqiqotlarda esa milliy tarbiya masalasi asosan ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning innovatsion metodlar orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirishdagi integrativ imkoniyatlari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi [8]

ASOSIY QISM:

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunan nafaqat o‘quv jarayonini takomillashtirishga, balki pedagog kadrlarning kasbiy va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga ham qaratilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun malakali pedagoglarni tayyorlash davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolaning dastlabki ilmiy dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy fazilatlarini shakllantiruvchi asosiy subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining pedagogik mahoratini rivojlantirish faqat metodik tayyorgarlik bilan cheklanmay, milliy tarbiya tamoyillariga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Zamonaviy pedagog o‘z kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlarni anglagan, innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan hamda ta’lim jarayonini zamon talablari asosida loyihalash kompetensiyasiga ega bo‘lishi lozim. Bu yondashuv mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari mazmuni bilan hamohang bo‘lib, pedagog shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi [9].

Milliy tarbiya o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ma’naviy merosi, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari va pedagogik tajribasining uzviy davomidir. Ushbu qadriyatlar yosh avlodni Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mas’uliyat va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy tarbiya mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik muhitni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ma’naviy-axloqiy tayyorgarligini ham kuchaytirishni talab etadi [10].

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda o‘qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirishda innovatsion metodlarning o‘rni alohida e’tirof etiladi. Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning), loyiha metodi (Project-Based Learning), dizayn fikrlash (Design Thinking), hamkorlikda o‘qitish (Collaborative Learning), reflektiv ta’lim (Reflective Learning), ”Case Study” va ”Flipped Classroom” metodlari bo‘lajak pedagoglarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, kreativ yondashuv va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodlarning afzalligi shundaki, ular talabani tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki bilimni mustaqil yaratishga qodir faol subyekt sifatida shakllantiradi. Natijada pedagogik faoliyat jarayonida nazariy bilimlar amaliy vaziyatlar bilan uyg‘unlashib, kasbiy mahoratning barqaror rivojlanishiga zamin yaratiladi [11].

Shu bilan birga, innovatsion metodlarni qo‘llashning o‘zi yetarli emasligi ilmiy adabiyotlarda ko‘p bora ta’kidlangan. Ayrim tadqiqotchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar barcha mamlakatlarda bir xil natija beradi degan fikrni ilgari surgan bo‘lsalar, boshqa olimlar ularning samaradorligi ta’limning madaniy va ijtimoiy kontekstiga bevosita bog‘liq ekanligini asoslaydilar. UNESCO hamda OECD ekspertlari ham ta’lim tizimida joriy etilayotgan har qanday innovatsiya milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va jamiyat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilgandagina kutilgan natijani berishini qayd etadilar. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion metodlarni milliy tarbiya tamoyillari bilan integratsiyalash pedagogik

tayyorgarlikning muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda [12].

Pedagogik mahorat tushunchasiga nisbatan ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. L. Shulman pedagogning muvaffaqiyatini pedagogik mazmuniy bilim (Pedagogical Content Knowledge) bilan izohlab, o‘qituvchi nafaqat fan mazmunini, balki uni o‘quvchiga qanday yetkazishni ham mukammal bilishi zarurligini ta’kidlaydi. J. Hattie esa pedagog faoliyatining samaradorligini refleksiya, muntazam o‘zini rivojlantirish va o‘qitish natijalarini tahlil qilish bilan bog‘laydi. L. Darling-Hammondning ilmiy qarashlarida esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, mentorlik va hamkorlik asosidagi innovatsion metodlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mahalliy pedagog olimlar esa pedagogik mahoratning negizini milliy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar va pedagogning shaxsiy namunasida ko‘radilar. Ushbu yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisini tayyorlashning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi [13].

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarni innovatsion pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik tafakkuri, ijodkorligi hamda tarbiyaviy salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tajribalar qiyosiy o‘rganilib, innovatsion metodlarning samaradorligi ularning milliy tarbiya tamoyillari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilishiga bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Shu bois oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy tarbiya mazmuniga tayangan innovatsion ta’lim metodlaridan tizimli foydalanish pedagogik ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va yuksak ma’naviy fazilatlarga ega pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OECD. (2019). OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. OECD Publishing. https://www.oecd.org/education/2030-project/

2. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Ta’lim to‘g‘risidagi O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF–60-son Farmonhttps://lex.uz/docs/5841063

4. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. O‘qituvchi. (Asarning birinchi nashri 1913-yilda chop etilgan.)

5. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.

6. Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. Jossey-Bass.

7. UNESCO. (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. UNESCO Publishing.

8. Musurmonova, O. (2016). Oila ma’naviyati – milliy tarbiya poydevori. O‘qituvchi.

9. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. PF–158-son Farmon. https://lex.uz/docs/6600413

11. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas, 83(2), 39–43.

12. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change (4th ed.). Teachers College Press.

13. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.